XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 3 - oktabr VI-45-66-1-22-K/23 Izboskan tumani hokimligi

Izboskan tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, jamoat xavfsizligi departamenti boshlig‘i podpolkovnik Sh.J.Qodirovning “Jamoat tartibini saqlash”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida hamda “Yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi to‘g‘risida”gi 2023 yil 6 oy yakunlari bo‘yicha olib borilgan ishlar yuzasidan hisoboti to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabr kungi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli farmoni ijrosi yuzasidan Izboskan tuman ichki ishlar bo‘limida jinoyatchilikni “jilovlash”, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jamoat tartibini saqlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mazkur yo‘nalishlarda belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilganligi, ichki ishlar organiga, davlat va jamoat idoralari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda tuman kengashi deputatlari tomonidan jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida ko‘rilgan chora-tadbirlarini samaradorligini oshirishda yaqin hamkorlikda ish olib borishlari zarurligi qayd etilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6 va 24 moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Izboskan tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari podpolkovnik Sh.Qodirovning “Jamoat tartibini saqlash” va “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida” hamda “Yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi” 2023 yil ikkinchi choragi yakuni davomida olib borgan ishlari yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari hamda Xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashi deputatlariga:

- aholi va ayniqsa yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

- fuqarolarni, ayniqsa ayollar va voyaga yetmagan yoshlarni o‘z joniga qasd va suiqasd qilinishi olidini olish maqsadida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari hamda hokimlik huzuridagi voyaga yetmagan ishlari bo‘yicha komissiyasi bilan hamkorlikda ish olib borish;

- hududlarda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish borasidagi ishlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ish olib borish hamda amalga oshirilgan ishlarni mutasaddi rahbarlar ishtirokida muhokama etib borish topshirilsin.

3. Tuman hokimligi, huquqni muhofaza qilish idoralari hamda tegishli tashkilot va muassasalar bilan hamkorlikda:

- sodir etilgan jinoyatlarni tub sabablari hamda shart-sharoitlari o‘rganilib, chuqur tahlil qilinib, keng jamoatchilik ishtirokida ta’sirchan muhokamalarini o‘tkazib borish;

- jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish, tinchlik va osoyishtalikni, xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash hamda huquq tartibotni mustahkamlashda jamoatchilik tuzilmalari hamda uning a’zolari bilan hamkorlikdagi ishlarni samarali tashkil etish, ularning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish;

- joylarda odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha davlat organlari, jamoat tashkilotlari va nodavlat-notijorat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirish hamda profilaktik ishlarni kuchaytirish;

- har bir hududda yashash joyidan uzoq muddatga chiqib ketgan fuqarorlar, shuningdek fuqarolarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan shug‘ullanayotgan shaxslarning ro‘yxatini olib, hudud profilaktika inspektorlari bilan axborot almashuvini yo‘lga qo‘yish;

- o‘sib kela yotgan avlodni hayotda munosib o‘rin egallashi, ularning odam savdosi jabrdiydalariga aylanishi oqibatlarini oldini olish borasida ta’lim muassasalari va mahallalarda tarbiyaviy-ahloqiy mavzularda davra suhbatlari va

uchrashuvlar tashkil etish topshirilsin.

4. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari A.Mamajonov, tuman hokimi o‘rinbosari oila va xotin qizlar bo‘limi boshlig‘i N.Kobilova, tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari jamoat xavfsizlik xizmati boshlig‘i Sh.Qodirov, maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri, tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i, kasb-hunar maktab direktorlariga mazkur dastur ijrosi bo‘yicha nazoratini tashkil etish topshirilsin. Belgilab qo‘yilsinki, mazkur dasturni ishlab chiqishda fuqarolar, ayollar va yoshlar o‘rtasida o‘z joniga qasd va suiqasd qilishga moyilligi bo‘lgan fuqarolarni aniqlab, ular bilan tushuntirish va targ‘ibot ishlarini tashkil etishda bevosita psixologlar, vrachlar, pedagoglar, huquqshunoslar va tajribali amaliyotchilarning alohida reja asosida ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (A.Mamajonov)ga jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ijobiy ishlarni va salbiy holatlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari orqali tanqidiy yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni Xalq deputatlari tuman Kengashiining "Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiya"si raisi A.Abdullev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Ismoilov**